

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-aprel oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-aprel oylarida, Farg'ona viloyatida jami 5 727,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,2 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

— Hajm, mlrd so'mda — O'sish sur'ati



| | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % |
|--------------------------|-----------------|-------------------|
| Farg'ona viloyati | 5 727,5 | 118,2 |
| shaharlar: | | |
| Farg'ona shahri | 1 031,2 | 106,4 |
| Qo'qon shahri | 295,6 | 106,4 |
| Quvasoy shahri | 115,8 | 118,0 |
| Marg'ilon shahri | 554,5 | 105,1 |

davomi

| | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % |
|--------------------|-----------------|-------------------|
| tumanlar: | | |
| Oltiariq tumani | 145,2 | 122,9 |
| Qo'shtepa tumani | 307,6 | 188,7 |
| Bag'dod tumani | 122,1 | 96,1 |
| Buvayda tumani | 169,5 | 110,0 |
| Beshariq tumani | 94,5 | 115,4 |
| Quva tumani | 124,1 | 119,1 |
| Uchko'prik tumani | 146,3 | 113,7 |
| Rishton tumani | 89,3 | 144,6 |
| So'x tumani | 44,1 | 99,8 |
| Toshloq tumani | 242,8 | 171,3 |
| O'zbekiston tumani | 164,8 | 126,3 |
| Farg'ona tumani | 138,1 | 114,8 |
| Dang'ara tumani | 221,0 | 149,5 |
| Furqat tumani | 80,4 | 141,5 |
| Yozyovon tumani | 101,1 | 123,3 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,5 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 28,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,4 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 141,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

| | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|---|------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm | 720,5 | 341,5 | 57,6 |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 129,4 | 61,4 | 212,5 |
| Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm | 1 800,4 | 690,8 | 254,2 |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 120,6 | 46,3 | 131,9 |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm | 1 859,1 | 3,4 | - |
| <i>o'sish sur'ati, %</i> | 116,8 | 0,2 | - |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 119,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 135,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,4 % ga ko'payib, 19,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ni tashkil etgan holda 2 745,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,5 % ni yoki 1 862,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Hajm, mlrd so'm | | | O'sish sur'ati, % da | | |
|-------------------|-----------------|-------------------------|-----------------|----------------------|-------------------------|-----------------|
| | Yirik | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor | Yirik | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Farg'ona viloyati | 1 119,7 | 2 745,3 | 1 862,5 | 135,0 | 113,2 | 117,0 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Farg'ona shahri | 191,3 | 745,6 | 94,3 | 124,4 | 105,2 | 88,8 |
| Qo'qon shahri | 26,3 | 193,4 | 75,9 | 141,2 | 101,6 | 110,3 |

| | | | | | | |
|--------------------|-------|-------|------|--------|-------|-------|
| Quvasoy shahri | 2,5 | 88,3 | 25,0 | 116,7 | 114,7 | 131,8 |
| Marg'ilon shahri | 247,1 | 259,0 | 48,4 | 78,1 | 163,2 | 92,2 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oltiariq tumani | 19,1 | 70,9 | 55,1 | 376,5 | 104,6 | 122,0 |
| Qo'shtepa tumani | 209,2 | 53,1 | 45,3 | 563,0 | 64,1 | 105,3 |
| Bag'dod tumani | 4,8 | 79,5 | 37,8 | 20,8 | 115,4 | 107,3 |
| Buvayda tumani | 4,2 | 134,0 | 31,3 | 5,6 | 244,8 | 133,9 |
| Beshariq tumani | 4,0 | 43,3 | 47,2 | 79,3 | 122,2 | 113,9 |
| Quva tumani | 7,1 | 47,8 | 69,2 | 136,3 | 131,6 | 110,4 |
| Uchko'prik tumani | 6,9 | 120,0 | 19,4 | 323,3 | 112,9 | 95,7 |
| Rishton tumani | 40,6 | 19,6 | 29,1 | 1335,2 | 68,1 | 97,5 |
| So'x tumani | 4,5 | 28,9 | 10,7 | 136,6 | 87,8 | 134,3 |
| Toshloq tumani | 35,7 | 132,6 | 74,5 | 544,2 | 143,9 | 173,0 |
| O'zbekiston tumani | 5,7 | 128,0 | 31,1 | 230,9 | 115,4 | 182,0 |
| Farg'ona tumani | 23,8 | 66,7 | 47,6 | 86,7 | 101,6 | 175,2 |
| Dang'ara tumani | 94,8 | 105,6 | 20,6 | 1656,2 | 84,6 | 118,6 |
| Furqat tumani | 3,0 | 30,6 | 46,8 | 36,4 | 103,6 | 243,9 |
| Yozyovon tumani | 19,0 | 47,2 | 34,9 | 136,0 | 125,0 | 115,4 |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilning mos davriga nisbatan Dang'ara tumanida 16,6 marta va Rishton tumanida 13,3 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buvayda tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,4 marta), Marg'ilon shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,6 marta) va Toshloq tumanida (1,4 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);



- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42
